

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Наманган вилояти Косонсой тумани
Мактабгача Таълим Булими директори
Каримова Р.С.



Техник топшириқ БУЮРТМАЧИ

Наманган вилояти Косонсой тумани Мактабгача Таълим Булими – 2022й.

№	Маълумотлар рўйхати	Асосий маълумотлар ва талаблар
1	Бажариладиган иш	Наманган вилояти Косонсой туман 12 МТМ биносини жорий тамъмирлаш ишлари Жами бошланғич сумма : 343 375 820 сўм
2	Буюртмачи	Наманган вилояти Косонсой тумани Мактабгача Таълим Булими
3	Бажарувчи	Танловдан сўнг аниқланади
4	Объект жойлашган манзил	Наманган вилоят Косонсой тумани Гулбог МФЙ
5	Иш бошланиши ва тугалланиши	2022 йил июль – 2022 йил сентябрь
6	Маблағ манзили	Бюджет
7	Алоҳида талаблар	Ишлар сифатли ва ўз вақтида бажарилиши шарт. Бажарилган ишлар қабул қилиш топшириш далолатномасига асосан қабул қилиб борилади
8	Налов шарти	1) Иш тажрибаси: Танлов қатнашчиси ушбу топшириқдаги хизматга доир иш тажрибага эга бўлиши керак. 2) Танлов иштирокчиси курсатилган муддатга ишларни бажаришга кафолат бериши керак.
9	Тўловлар шарти	

	Тўловлар пул кўчириш йўли билан ва счёт фактура асосида
--	--



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich

Sana: 24-05-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 43377

Obyekt nomi «Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 12-sonli mактабгача та'lim bo'limi binosini joriy ta'mirlash»

Buyurtmachi - Maktabgacha ta'lim boshqarmasi Kosonsoy tumani maktabgacha ta'lim bo'limi

Bosh loyihachi - "МЕГА АРТ ПРОЕКТ" МЧЖ

Litsenziya - 19.06.2020 yil AL-000906 O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi

Moliyalashtirish manbai - Davlat mablag'i.

Bosh pudratchi - Tender tanlovi asosida.

Qurilish turi - Joriy ta'mirlash.

Murojaat raqami: № 36431

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Kosonsoy tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i va nuqson dalolatnomasi.

1.2. Kosonsoy tuman moliya bo'limi va Kosonsoy tuman hokimligi tomonidan Kosonsoy tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli davlat ta'lim tashkilotlarida 2022 yilda bajariladigan joriy ta'mirlash ishlari yuzasidan manzilli ro'yxati.

1.3. Kosonsoy tumani maktabgacha ta'lim bo'limi va "МЕГА АРТ ПРОЕКТ" МЧЖ o'rtaсидаги loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun 2022 yilda tuzilgan C-22-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Kosonsoy tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i va nuqson dalolatnomasi.

2.2. Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. "Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 12-sonli maktabgacha ta'lim bo'limi binosini joriy ta'mirlash" ob'yekti loyiha-smeta hujjatlarida oshxonalar, atrof devorlari, ko'mirxonalar va xojatxonalarini joriy ta'mirlash ishlari bajarilishi rejalashtirilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasiga asosan tuzilgan smeta hujjatlarida ob'yektda elektr ta'minotida ta'mirlash ishlari bajariladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ob'yektda bajarilishi lozim bo'lgan ish turlari va hajmlari jadvali buyurtmachi tomonidan o'rganib chiqilgan 2022 yilda tasdiqlangan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar va amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati buyurtmachining boshqa sarf-xarajatlari va 15% QQS bilan birga **349 975,311** ming so'm taqdim etildi. Smeta hujjatlarini o'rganish jarayonida ba'zi qurilish materiallari narxi pasaytirilishi hisobiga ob'yekt bahosi - **6 599,491** ming.so'mga kamaydi va ob'yektning umumiy bahosi buyurtmachining boshqa sarf-xarajatlari va 15% QQS bilan xisoblaganda **343 375,820** ming so'mga belgilandi.

Shu jumladan:

- qurilish montaj ishlari (QMI) - **290 943,536** ming so'mni;
- qurilish vaqtida qurilish obektini sug'urtalashga sarflangan xarajatlar(0,32%) - **931,019** ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i 15% - **43 781,183** ming so'mni tashkil etilgan.
- Buyurtmachining boshqa sarf-xarajatlari - **7 720,082** ming so'm tashkil etgan. (Buyurtmachi tashkilotning 22.05.2022-yildagi № 15-sonli xati asosida).

(Ushbu xarajatlarni hisob-kitob qilish ShNQ 4.01.16-09 4.13 va 4.14 bandlari ko'rsatilgan tartiblar bo'yicha olib borilishi tavsiya etiladi va ma'sullik buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi).

(Tanlovga qo'yilgan obektning boshlang'ich baxosi qurilish obektini umumiy joriy narxidan "buyurtmachining boshka xarajatlari" ni (Pz) ayirgan holda aniqlanadi (ShNK 4.01.16-09).

Ishchi quruvchilarning o'rtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2021-yil IV chorak(kvartal) katalog asosida **17 504,96 x 1,12 = 19 605,5552** so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Ta'kidlash joizki:

- a). Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi va asoslovchi xujjalarga tayanilishi lozim hamda o'zaro hisob-kitob qilishda ShNQ 4.01.16-09 qoidalariiga amal qilgan holda eng maqbul narxlar qabul qilinishi nazorati buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.
- b). Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:
 - pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;

- "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;
- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagि o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidан olinganligi.

6.3. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi .

6.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4 -bandi).

6.5. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaxarsozlik xujatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyixa yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyixa tashkiloti javobgardir".

6.6. Nuqson dalolatnomasi xaqqoniyligi va ishonchliligi uchun javobgarlik buyurtmachiga va loyixachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda "**Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 12-sonli maktabgacha ta'lim bo'limi binosini joriy ta'mirlash**" ob'ekti bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: Tajibayev Sharof Abdurashidovich